

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллаҳжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra‘no Maxkamova	
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Dilrabo Babajanova	
XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
3. Jaxongir Inayatov	
MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
4. Nurbek Matyakubov	
METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
5. Nodira Radjabova	
“BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov	
AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
7. Sevara Yusupova	
O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
8. Гулчехра Абдулхай	
ЎЗБЕКISTОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
9. Наргиза Каримова	
ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
10. Erkinjon Kenjayev	
XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
11. Шоҳида Давурова	
ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ХУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov	
O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74

12. Zakia R., Page D. *Photographic Composition: A Visual Guide*. – Boston: Focal Press, 2010.
13. Hariman R., Lucaites J. L. *No Caption Needed: Iconic Photographs, Public Culture, and Liberal Democracy*. – Chicago: University of Chicago Press, 2007.
14. Sontag S. *Regarding the Pain of Others*. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2003.



Nurbek Matyakubov,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN

For citation: Nurbek Matyakubov. FROM THE HISTORY OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF METROPOLITENS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401574>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada metropoliten tizimlari rivojlanishida xalqaro hamkorlik aloqalarining shakllanishi va evolyutsiyasi tarixiy-tahliliy asosda yoritiladi. Xususan, turli davlatlar o'rtasida texnologik almashinuv, muhandislik tajribasi transferi, investitsion hamkorlik va institutsional integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, metropoliten infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar va konsorsiumlarning roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy shahar transport tizimlarini takomillashtirishda xalqaro hamkorlikning muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: metropoliten, xalqaro hamkorlik, transport infratuzilmasi, texnologiya transferi, urbanizatsiya, investitsiya, muhandislik tajribasi, integratsiya.

Нурбек Матякубов,
научный сотрудник
Ургенчского государственного университета

ИЗ ИСТОРИИ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ МЕТРОПОЛИТЕНОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история формирования и развития международного сотрудничества в сфере метрополитенов. Особое внимание уделяется процессам технологического обмена, трансфера инженерного опыта, инвестиционного взаимодействия и институциональной интеграции между странами. Раскрывается роль международных организаций и консорциумов в развитии метрополитенной инфраструктуры. Результаты исследования свидетельствуют о значительной роли международного сотрудничества в совершенствовании современных систем городского транспорта.

Ключевые слова: метрополитен, международное сотрудничество, транспортная инфраструктура, трансфер технологий, урбанизация, инвестиции, инженерный опыт, интеграция.

Nurbek Matyakubov,
Researcher, Urgench State University

FROM THE HISTORY OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF METROPOLITENS

ABSTRACT

This article examines the historical development of international cooperation in the field of metro systems. Particular attention is paid to the processes of technology transfer, exchange of engineering expertise, investment collaboration, and institutional integration among countries. The role of international organizations and consortia in the development of metro infrastructure is also highlighted. The findings demonstrate that international cooperation is a crucial factor in improving modern urban transport systems.

Index Terms: metro systems, international cooperation, transport infrastructure, technology transfer, urbanization, investment, engineering expertise, integration.

Kirish:

Zamonaviy shaharlar rivojlanishi jarayonida metropoliten tizimlari yuqori sigʻimli va samarali jamoat transporti turi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Metropolitenlarning shakllanishi va rivojlanishi faqat milliy imkoniyatlar bilan emas, balki keng koʻlamli xalqaro hamkorlik aloqalari bilan ham chambarchas bogʻliqdir.

Tarixiy jihatdan metropoliten qurilishi va ekspluatatsiyasi jarayonlarida ilgʻor texnologiyalar, innovatsion muhandislik yechimlari va boshqaruv tajribasi rivojlangan davlatlardan boshqa mamlakatlarga transfer qilinib kelgan. Shu nuqtai nazardan, metropolitenlar sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlarini oʻrganish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi metropoliten tizimlarining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro hamkorlikning oʻrni va rolini tarixiy hamda tizimli tahlil qilishdan iborat.

Tahlil va natijalar:

Zamonaviy shaharlar kontekstida jamoat transporti aholining harakati va shahar iqtisodiy faoliyati uchun zarur boʻlgan asosiy infratuzilma elementlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Shahar yoʻlovchi transportining barqaror, aniq va ishonchli ishlashi nafaqat metropoliten hayotining uzluksizligini taʼminlaydi, balki murakkab shahar infratuzilmasi tizimlarining samarali funktsionalligi uchun ham shart hisoblanadi.

Katta shaharlarning transport tarmoqlari koʻpincha bir nechta turdagi transport vositalarini oʻz ichiga oladi. Ushbu tizimlarning korxonalari odatda maʼlum bir boshqaruv tuzilmasiga boʻysunadi, ammo ular oʻzaro integratsiyalashmagan boʻlib, bu transport operatorlariga boshqa shaharlar yoki mamlakatlardagi ilgʻor tajribalar, yangi texnologiyalar va ishlab chiquvchilar haqida maʼlumotlarni keng qamrovda oʻrganish imkonini cheklaydi. Shu sababli, transport tizimlarining samaradorligini oshirish va innovatsion yechimlarni joriy etish uchun tizimli integratsiya va tajriba almashinuvi muhim hisoblanadi.

Shahar transport tizimlarida tizimli integratsiya masalasi odatda transport sohasidagi mutaxassislarni mintaqaviy va xalqaro darajadagi professional tashkilotlar orqali birlashtirish orqali muvaffaqiyatli hal qilinadi. Shu bilan birga, bunday tashkilotlarning asosiy vazifasi ishtirokchilarning harakatlarini boshqarish emas, balki zarur maʼlumotlarni taqdim etish, professional malaka oshirish, tajriba almashish va yuzaga keladigan muammolarni hal qilish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bu kabi tashkilotlarga nafaqat transport korxonalari, balki transport vositalari uchun turli uskuna ishlab chiqaruvchi zavodlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, loyiha tashkilotlari va taʼlim muassasalari ham kiradi.

Shahar yoʻlovchi transporti sohasidagi xalqaro hamkorlikning yorqin namunasi sifatida “Xalqaro Jamoat Transporti Ittifoqi (UITP, International Association of Public Transport)”ni keltirish mumkin. UITP butun dunyo boʻylab shahar transport xizmatlarini taʼminlovchi tashkilotlarni birlashtiradi.

1885-yilda Bryusselda tramvay va yengil temir yoʻl transporti tashkilotlari birinchi mintaqaviy uchrashuvini oʻtkazilgan. Unda 9 mamlakatdan 63 kompaniyaning manfaatlarini

himoya qiluvchi 44 nafar delegat ishtirok etgan. Birinchi Kongress esa Berlin shahrida bo'lib o'tdi va 110 nafar delegatni jamladi[1].

Dastlabki yillarda tashkilot asosan texnik va ekspluatatsion masalalarga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, 1910 yildan boshlab UITP shahar transporti tizimlarining shahar rivojlanishi bilan bog'liqligi kabi kengroq muammolarni ham o'rganishni boshladi. 1910-yildan boshlab birinchi hisobot taqdim etilgan bo'lib, unda jamoat transporti tizimlari va shahar rivojlanishi o'rtasidagi yaqin bog'liqlik alohida qayd etilgan[2].

1912-yilda ushbu hisobotdan so'ng "Shahar demografiyasi va transport siyosati" nomli hisobot taqdim etildi, 1914 yilda esa "Yangi transport modellari katta shaharlarning rivojlanishi va o'sishiga ta'siri. Jamoat transportining ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri" mavzusidagi hisobot ishlab chiqildi. Tashkilot nafaqat kongresslar uchun puxta hujjatlashtirilgan hisobotlar tayyorlagan, balki a'zolarining so'rovi bilan turli tadqiqotlarni ham amalga oshirgan. Xususan, 1901–1914 yillar davomida jami 87 ta tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, ularning mavzulari ko'pincha texnik masalalarga bag'ishlangan edi.

Ushbu 19 yil davomida Yevropaning yirik shaharlarida 9 ta kongress o'tkazilgan. Biroq, navbatdagi kongress, 1914-yil sentyabr oyida Budapeshtda o'tkazilishi rejalashtirilgan edi, biroq Birinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan bekor qilindi. Urush sababli tashkilot faoliyati vaqtincha to'xtatildi va navbatdagi kongress faqat 1922-yilda o'tkazildi[3].

Urush yillari va 1922-yilgacha tashkilot faoliyati minimal darajaga tushirilgan bo'lsa-da, u hech qachon to'liq to'xtatilmagan. Urushdan so'ng, UITP a'zolarining Germaniya, Avstriya, Bolgariya va Turkiyadagi aktivlari Belgiya qonunchiligi asosida musodara qilindi. Ittifoq vaqtincha tarqatildi, so'ngra yangi tashkilot shaklida qayta tashkil etildi.

Rasmiy ravishda yangi tashkilot 1922-yil fevral oyida, birinchi Bosh Assambleya o'tkazilganda tashkil etilgan. Shu paytgacha tashkilotga faqat ittifoqdosh yoki neytral davlatlar kirgan edi.

1939-yilda Ittifoq o'z nomini yana bir bor o'zgartirdi va bugungi kungacha saqlanib kelayotgan Xalqaro Jamoat Transporti Ittifoqi (UITP, International Association of Public Transport) nomini oldi. 26-kongress ishtirokchilari Syurix va Bern shaharlarida qabul qilindi, va birinchi marta rasmiy til sifatida ingliz tili qo'llanildi. Kongress taqdimotlari temir yo'l transporti, avtomobil transporti va trolleybuslar, shuningdek, ekspluatatsiya masalalari kabi uch bo'limga bo'linib muhokama qilinar edi[4].

Bundan avvalgi yillarda muayyan mavzulardagi hisobotlar taqdim etilgan bo'lsa, endilikda tashkilot nafaqat kongresslar uchun hujjatlashtirilgan hisobotlar tayyorlagan, balki a'zolar so'rovi bilan turli tadqiqotlarni ham amalga oshirgan. 1901–1914-yillar davomida jami 87 ta tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, ularning ko'pi texnik masalalarga bag'ishlangan edi. Shu 19 yil davomida Yevropaning yirik shaharlarida 9 ta kongress o'tkazilgan. Biroq 1914-yilda Budapeshtda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan navbatdagi kongress Birinchi jahon urushi boshlanishi sababli bekor qilindi.

Urush yillari va 1922-yilgacha tashkilot faoliyati minimal darajaga tushirilgan bo'lsa-da, to'liq to'xtatilmagan. Urushdan so'ng, UITP a'zolarining Germaniya, Avstriya, Bolgariya va Turkiyadagi aktivlari Belgiya qonunchiligi asosida musodara qilindi. Ittifoq vaqtincha tarqatildi, so'ngra yangi tashkilot shaklida qayta tashkil etildi. Rasmiy ravishda yangi tashkilot 1922-yil fevral oyida birinchi Bosh Assambleya o'tkazilganda tashkil etilgan. Shu paytgacha unga faqat ittifoqdosh yoki neytral davlatlar kirgan edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida UITP faoliyati yana vaqtincha to'xtatildi. 1941-yilda Stokgolmda o'tkazilishi rejalashtirilgan kongress amalga oshirilmadi. Urushdan keyin esa tashkilot faoliyati tezkorlik bilan tiklandi va oldingi yillar faoliyati asosan Yevropa bilan cheklangan bo'lsa, endi u xalqaro darajaga ko'tarildi.

1957-yilda UITPning muhim tarkibiy bo'limi – Xalqaro metro komiteti ish faoliyatini boshladi, bu esa shahar transporti tizimlarining metropoliten qismini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi[5].

Shahar transporti tizimlaridagi transport magistrallarining ortiqcha yuklanishi masalasi birinchi marta ishchi guruh tomonidan yetarlicha e'tiborga olindi va yetti tilga tarjima qilingan

buklet orqali transport tirbandliklarining muammosi va ularni jamoat transportini rivojlantirish orqali hal etish yo'llari ommaga taqdim etildi.

UITP faoliyati, harbiy va siyosiy inqirozlar, ma'muriy qiyinchiliklar va iqtisodiy krizislar sharoitida ham davom etganligi uning samaradorligi va jamoat transporti korxonalarini birlashtirish zaruratining dolzarbligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, UITP doirasida tashkil etilgan Xalqaro metropoliten komitetining faoliyati shahar transport tizimlarida metropolitenlarning muhim ahamiyatini ochiq ko'rsatadi[7].

Rossiya va MDH davlatlari hududidagi metropoliten faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida "Metro Xalqaro Assotsiatsiya" si 1992-yil fevralda tashkil etilgan bo'lib, bu tarixiy jarayonda markazlashtirilgan metropoliten boshqaruv tizimi Yo'l harakati vazirligi Metropolitenlar bosh boshqarmasining tugatilishi bilan barbod bo'lgan edi. Sobiq Sovet Ittifoqi metropolitenlari kommunal boshqaruvga topshirilganligi ularning birlashmasligi va ko'plab muammolarni mustaqil hal eta olmasligini keltirib chiqardi[6].

Metropoliten rahbarlarining bir xildagi texnologik jarayon, yagona texnik vositalar va bir xil harakat tarkibi asosida ishlovchi transport korxonalarini birlashtirish zaruratini tushunishi jamoat tashkilotini — metropolitenlar ittifoqini yaratishning birinchi qadami bo'ldi. Shu tarzda tashkil etilgan xalqaro assotsiatsiya transport operatorlari va ishlab chiqaruvchilarni bo'linma emas, professional tamoyil asosida birlashtirdi, metropolitenlarning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq ko'plab texnik masalalarni muvofiqlashtirish va hal qilish, yangi texnologik uskunalarni bilan jihozlash hamda yangi ekspluatatsiya tizimlarini ishlab chiqish vazifasini o'z zimmasiga oldi.

Bozor munosabatlari sharoitida murakkab moliyaviy va tashkiliy qiyinchiliklar paytida Assotsiatsiya koordinatsion va axborot-tahliliy funksiyalarni amalga oshirdi, shu orqali metropoliten jamoalarini birlashtirish va konsolidatsiyalashga hissa qo'shdi.

Keyingi yillarda Assotsiatsiyaga Minsk, Dnepr, Xarkov va Kiev metropolitenlari qo'shildi[7].

Assotsiatsiya o'z faoliyatini "asosiy faoliyat yo'nalishlari" va yillik ish rejasi asosida olib boradi. Rejada belgilangan tadbirlarda ishtirok etuvchi a'zolar metropolitenlar, ishlab chiqaruvchi korxonalar, yangi mahsulotlar va ilg'or ilmiy-texnik yutuqlar haqidagi eng so'nggi ma'lumotlarni oladi.

2013-yilda Assotsiatsiya veb-sayti ishga tushirildi, bu esa tashkilot faoliyati bo'yicha tezkor axborot berish, yangiliklarni e'lon qilish, metropolitenlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati, shuningdek, yig'ilish va boshqa tadbirlar materiallarini ommaga taqdim etish imkonini yaratdi[9].

Shunday qilib, "Metro xalqaro assotsiatsiya" sining faoliyati ko'p qirrali va turli sohalarni qamrab oluvchi bo'lib, metropolitenlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning samaradorligi a'zo tashkilotlar jamoalari tomonidan yuqori baholangan[10].

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metropoliten tizimlarining rivojlanishi ko'p jihatdan xalqaro hamkorlik aloqalarining darajasi va samaradorligiga bog'liqdir. Turli davlatlar o'rtasidagi texnologik va institutsional hamkorlik metropoliten qurilishi va ekspluatatsiyasining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar, transmilliy kompaniyalar va ilmiy markazlar ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar zamonaviy metro tizimlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelgusida metropolitenlar sohasida xalqaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa innovatsion texnologiyalar va ekologik yechimlar yo'nalishida, ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

-
1. Кобилжонов, Э. Факат метролар хакида / Э. Кобилжонов // Биржа. - 2009. - 11 апр. (Kabiljanov, E. But about subways / E. Kobiljanov // Exchange. - 2009. - April 11)

2. Развитие общественных объединений городского пассажирского транспорта // «METRO INFO International» №2 2014. – С.44-45. (Development of Public Associations of Urban Passenger Transport // METRO INFO International, No. 2, 2014. - pp. 44-45.)
3. Қулай ва хавфсиз транспорт тури : [Тошкент метрополитени ҳақида] // Норма маслахатчи. - 2011. - 3 сент. (Convenient and safe mode of transport: [About Tashkent metro] // Norma consultant. - 2011. - 3 cents.)
4. Николаев В. Больше удобств и комфорта пассажирам [метро] // Нар. слово. - 2008. - 16 окт. (Nikolaev V. More convenience and comfort for passengers [metro] // Nar. word. - 2008. - October 16.)
5. Рахмонов С. За час с небольшим вокруг столицы: в строительстве новых станций Ташкентского метрополитена придерживаются восточных традиций архитектуры / С. Рахмонов // Нар. слово. -2019.-20 июля. (Rakhmonov S. Around the capital in a little over an hour: Eastern architectural traditions are followed in the construction of new stations of the Tashkent metro / S. Rakhmonov // Nar. word. -2019.-July 20).
6. Ниёзов, А. Тошкент метроси / А. Ниёзов. - Тошкент : Ёш гвардия. - 1975. - 48 б. (Niyazov, A. Tashkent subway / A. Niyazov. - Tashkent: Young Guard. - 1975. - 48 p.)
7. Тошкент метрополитени = Ташкентский метрополитен = Tashkent metro : 40 ёшда / O'zbekiston temir yo'lari. - Тошкент : Маъна-вият, 2017.-272 б. (Tashkent metropoliten = Tashkentsky metropoliten = Tashkent metro: 40 years old / Railways of Uzbekistan. - Tashkent: Mana-viat, 2017.-272 p.)
8. Шайхов, Х., Бизнинг метро / Х- Шайхов. - Тошкент : Ёш гвардия, 1981.-24 б. (Shaikhov, X., Our subway / X-Shaykhov. - Tashkent: Yosh gvar diya, 1981.-24 p.)
9. Toshkent metropoliteni-mo'jizaviy yer osti qasri// Toshkent oqshomi. 2009-yil 18-avgust. (Tashkent Metro - a miraculous underground palace // Tashkent Evening. August 18, 2009.)
10. Metroda 136 million yo'lovchi tashildi// Toshkent oqshomi. 2003-yil 6-fevral. (136 million passengers were transported by the metro // Tashkent Evening. February 6, 2003.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000